

ZIYODULLA NASULLAYEV

*AMIR XUSRAV DEHLAVIY
ASARLARIDA
MUSIQA HAQIDA
MA'LUMOTLAR*

*Mazkur ilmiy-uslubiy qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriyasi
Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Mas'ul muharrir: **S.M.Begmatov**, san'atshunoslik nomzodi, professor

Taqrizchilar: **J.A.Nazarova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

I.O'.Shokirova, katta o'qituvchi

Ushbu ilmiy-uslubiy qo'llanma Sharq xalqlari, jumladan Hindiston va Pokiston musiqa madaniyatini o'rganuvchi konservatoriya talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan Yaqin va O'rta Sharqda ham mashhur bo'lgan buyuk shoir, mutafakkir, ijrochi va bastakor Amir Xusrav Dehlaviy (1253-1325) hayoti va ijodi bilan qiziquvchi kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

© Z.Nasullaev, 2010.

KIRISH

Mazkur qo'llanmada O'zbekiston hamda Hindiston va Pokistonda chop etilgan turli manbalar asosida Amir Xusrav Dehlaviy asarlarida musiqa haqidagi ma'lumotlarni yig'ishga xarakat qilingan. Bu materiallar Hindiston yarim oroli va O'rta Osiyo xalqlarining musiqiy aloqalari hamda Dehli sultonligi davridagi (XIII–XIV asrlar) musiqiy an'analar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi.

Qo'llanmaning birinchi bobida XIII-XIV asrdagi hind-musulmon madaniyati haqida batafsilroq ma'lumot beriladi. Hindistonning (XI-XV asrlar) musulmonlar tomonidan zabt etilishi o'z asoratlarini qoldirgan.

O'rta Sharq va O'rta Osiyo mamlakatlaridan kelgan musulmon fotihlari hind aholisiga qo'shib ketadi. Ularni boshqaruvchi sultonlar va ularning avlodlari Hindiston sharoitiga moslashadilar. Hind mumtoz va xalq musiqasiga O'rta Osiyo mamlakatlari va Eron xalqlarining madaniyati islom dini orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Qo'llanmaning keyingi boblarida buyuk hind shoiri, iste'dodli adabiyotchi va musiqachi sifatida mashhur bo'lgan «sangitkar» – bastakor, «setor» va «tabla» musiqiy cholg'ularini takomillashtiruvchisiga bag'ishlangan. Amir Xusrav Dehlaviy – ko'p qirrali va o'ziga xos shoir. Dehlaviyning chuqur falsafiy she'riyati, musiqasi hozirgi kungacha nafaqat Hindiston va Pokistonning, balki O'rta va Yaqin Sharqning ko'plab mamlakatlari kitobxonlarini o'ziga jalb qilib kelgan va kelmoqda. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ham Dehlaviyning ijodini sevar edi va uni «hind afsungari» deb atagan. Dehlaviy fors, arab, sanskrit tillarini yaxshi bilgan, lekin u o'z asarlarini fors va hindaviy tillarida yozgan.

Uning asarlarida musiqaning turli shakllari va xarakteri: musiqiy janrlar va cholg'ular haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. «Qavvali» va «G'azal» musiqiy janrlarining paydo bo'lishi va rivojlanishida uning xizmati juda kattadir. Mazkur ishning muallifi talabalar Dehlaviyning asarlarini tahlil qila olishlari uchun, qolaversa forsiy va hindaviy g'azal va masnaviylarni bandma–band tarjimasini keltiradi.

Asarning to'rtinchi bobida Amir Xusrav Dehlaviy asos solgan «Qavvali» janri batafsilroq ko'rib chiqiladi.

Qo'llanmaning oxirida hind va urdu tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan musiqiy atamalar lug'ati berilgan.

I. XIII–XIV ASRLARDA HIND-MUSULMON MADANIYATI

Hindiston yarim oroli xalqlarining musiqiy san'ati keng va serjilo xususiyatga egadir.

Chuqur o'rganilmagan, balki bir qator sabablarga ko'ra aniqlanmagan Sharq musiqiy shakllari, janrlari, milliy uslublari Hindiston, Pokiston va Bangladeshda ham mavjuddir.

Besh asr davom etgan Hindistonning Markaziy Osiyoliklar va ularning hukmronligi tomonidan zabt etilishi bu davlat tarixi va madaniy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Bu yurishlar VII asr Janubiy G'arbiy Hindistonning Sind vodiysini, arablar XI asrda Panjobni Afg'onistondagi G'azna hukmdori turk Mahmud G'aznaviy zabt etishi bilan boshlangan va XVI asrda Temur avlodi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Boburiylar saltanatining o'rnatilishi bilan yakunlanadi. Hindiston erlarini zabt etganlarning dini – islom, asosiy adabiy til esa forsiy edi. Hindiston yarim oroli xalqining madaniyati shu bilan bir qatorda musiqa san'atining rivoji uchun VIII asrda tarqala boshlagan islom dini katta ahamiyat kasb etadi. Bir necha asrlar davomida musulmonlar va Shimoliy Hindiston mahalliy aholisining an'analari aralashib uyg'unlashdi.

Hindistonning (XI–XV asrlar) Markaziy Osiyoliklar tomonidan zabt etilishi o'z asoratiga ega edi. Javaharlal Neru o'zining «Hindistonning kashf etilishi» kitobida musulmonlar hind aholisiga aralashib ketganligini, ular boshqargan sulolalar esa butkul hindulashganliklarini, Hindistonni o'z vatanlaridek tan olishlarini ta'kidlaydi. O'rta Sharq va O'rta Osiyo mamlakatlaridan chiqqan o'zga erliklar Hindiston aholisining kichik bir qismini tashkil etardi, xolos. Ular orasidan saroy hamda Dehli saltanatidagi davlat boshqaruvi, undan so'ng buyuk mo'g'ullar saltanati (Boburiylar imperiyasi) va bir qator boshqa hind davlatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan yuqori tabaqali qatlam tashkil topdi.

Taajjub emaski, bir necha davr mobaynida zab etuvchi bu feodal-musulmonlar hindularning diniy qiziqishlarini nazar-pisand qilmaganlar. Zab etishning birinchi yillarida hind feodallarining diniy xaq-huquqlarini kamsitishgan»¹.

Keyinchalik hind aholisining bir qismi islom dinini qabul qilishi va ba'zi hollarda esa ularni ushbu dinni qabul qilishiga majbur etilishi Hindistonda musulmonlar sonining ko'payishiga sabab bo'ldi. Lekin musulmonlar mamlakat aholisining kamchiligini tashkil qilardi va ular asta-sekinlik bilan hindularga qo'shilishib ketganlar. Shu bilan birga hind madaniyati O'rta Osiyo va Hindistonning o'zaro madaniy aloqalari ta'sir ostida rivojlandi. O'zga erlik zabt etuvchilar o'z mamlakatlarida mavjud bo'lgan diniy urf-odatlarini va madaniy an'analarini saqlab qolishgan. Ko'plab hind musulmonlari O'rta asrlardayoq urdu tilida so'zlashardi. Urdu tili Ganga-Jamna vodiysida yashovchi mahalliy xalqning tili asosida vujudga kelgandi. Bu tilda hindlar ham, musulmonlar ham so'zlashardi.

Shunday qilib, uzoq davom etgan uyg'un xayot musulmonlar sonining o'sishi, hindularning islom dinini qabul qilishi, hinduizm va islom dini ulamolarining xalqni tinch va osoyishta hayot kechirishini targ'ib qilishi, ularni birdamlikka chorlashlari, O'rta asr Hindiston hukmronlarining madaniyat va san'atning rivojlanishiga homiylik qilishlari hind va musulmonlar ijtimoiy hayotida turlicha o'zgarishlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Hindistonning shimoliy qismiga musulmonlarning kirib kelishi vaqtida Hindistonning qadimiy tillaridan biri bo'lmish «sanskrit» va undan kelib chiqqan «pali» va «prakrit» tillari tamomila hayot bilan bog'liqlikni yo'qotib, tez rivojlanib borayotgan xalq shevalariga, hamda keyinchalik yangi hind tillarining paydo bo'lishida asos bo'lib xizmat qildi.

Shimoliy Hindistonda keng tarqalgan shevalardan biri «Khari boli» «Braj» va «Avadhi» shevalari mahalliy hind xalqlari o'rtasida so'zlashuv vositasiga aylandi. «Khari boli» tili Hindistonning zamonaviy so'zlashuv tili «Hindustani»ning kelib chiqishiga asos bo'ldi. «Hindustani» so'zlashuv tili asosida esa ikki xil shaklga ega

bo'lgan adabiy til vujudga keldi. Keyinchalik ular «hindiy» va «urdu» tili deb ataldi va bu tillar hozirgi kungacha taraqqiy etib kelmoqda.

Adabiy xindiy tilining leksika va yozuvida o'ziga xoslik hamda uning Hindistondagi qadimiy madaniyat va hinduizm dini bilan bog'liqligi, shu bilan bir qatorda adabiy urdu tilining fors adabiyoti va islom dini bilan chuqur uyg'unligi, shuningdek, boshqa bir tarixiy-siyosiy xarakterga ega bo'lgan sabablar quyidagi fikrlarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi, go'yoki, urdu tili Hindistonda yashovchi musulmonlar tili bo'lib, hindiy tili esa hindularning adabiy tilidir.

Albatta turk, afg'on, eronliklarning mahalliy xalq bilan aloqada bo'lishi Shimoliy Hindiston so'zlashuv shevalarini shakllanishiga sezilarli ta'sir o'tkazgan, lekin Hindistonda musulmonlar yangi tilni hech qachon vujudga keltirishmagan. Balki ular shungacha mavjud bo'lgan «Khari-boli» so'zlashuv shevasini taraqqiy etish yo'nalishini ochib berishgan. Khari-boli shevasi asosida paydo bo'lgan so'zlashuv tili va Shimoliy Hindistondagi boshqa tillar uzoq vaqt davomida «Hindaviy» deb atalgan. Undan so'ng asta-sekin bu sheva Janubiy Hindiston bo'ylab tarqala boshladi va «Gujri» va «Dakni» deb atala boshladi. Bu shevada she'riyatning rivojlanishi «Rexta» deb ataluvchi she'riy uslubni vujudga keltirdi.

Hozirgi paytda «Hindustani» atamasi so'zlashuv tilining nomidir. Urdu atamasi esa adabiy shaklining nomi bo'lib, XVII–XVIII asrlarda keng tarqaldi. Urdu atamasi turkiy tilga mansub bo'lib, uning birinchi ma'nosi «qo'shin», «harbiy qarorgoh», «xarbiy qarorgoh bozori», degan ma'nolarni bildiradi. Urdu tili hindular va O'rta Osiyodan kelganlarning uzoq vaqt davomidagi muloqot jarayonining natijasidir.

Ikki madaniyatning yaqinlashuvi va uyg'unlashuvi Hindiston aholisining pastki va yuqori qatlamlarini qamrab oldi, ayniqcha shahar va qishloqlarda yashovchi past tabaqali aholi o'rtasida bu jarayon tez sur'atlar bilan o'sdi.

Shimoliy Hindistondagi yangi hindiy tillarning ilk rivojlanish davri ikki madaniyatning boshlang'ich uyg'unlashuv jarayoniga to'g'ri keladi. Hindaviy tilida ijod etgan shoir va yozuvchilarning nomlari bizgacha qadimiy to'plamlari, ya'ni «tazkira»lar orqali etib kelgan.

¹ Javaharlal Neru. Hindistonning kashf etilishi. Moskva. 1961. 200-201 betlar.

Fors tilida ijod etuvchi ko'plab shoir va yozuvchilar o'z she'rlari, nasriy va falsafiy risolalarini hindaviy tilida yozishgan. Ulardan Ma'sud Sad Salmon (1059–1121), Xoja Ashraf Jahongir Sumnaiy (XII asr), Shayx Xoliduddin Nagoriy (1356 yil vafot etgan) va boshqalar nomlarini zikr etishimiz mumkin.

Amir Xusrav Dehlaviy fors, hindaviy va keyinchalik shu til asosida vujudga kelgan urdu tili va she'riyatiga asos solgan ulug' shoir va musiqashunos hisoblanadi.

O'rta asr fors she'riyatining mashhur mumtoz shoiri Amir Xusrav Dehlaviy ilk bor fors adabiyoti va fors-arab leksikasini urdu adabiyotida qo'llagan. U hindaviy tilida ijod qilib, ulkan meros qoldirgan. Amir Xusrav Dehlaviy bu tilda yuzlab she'rlar yozgan, lekin hozirgi kungacha bu she'rlar hind va urdu tillari tarixining eng murakkab va kam o'rganilgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, Amir Xusravning ko'plab yozgan asarlari xalq ijodiyoti xarakterida bo'lib, bizgacha og'zaki ko'rinishda xalq qo'shiq va madhiyalari shaklida etib kelgan.

Uning topishmoqlari, latifalari, qofiyali maqol va hikmatli so'zlari xalq og'zaki ijodiyotining qayta she'riy ishlangan shakliga egadir. Amir Xusrav yaratgan qo'shiqlar Hindiston va Pokistonning shahar va qishloqlarida bugungi kunda ham kuylanib kelinmoqda. Bu kuylar Hindiston va Pokiston xalqining an'analari va urf-odatlarini haqida uning yorqin va mazmunli hikoyalariidir.

Hindiston dunyoning eng qadimiy mamlakatlaridan biridir.

Qadimiy va o'rta asr Hindiston san'ati 5000 yillik tarixga ega. Ta'kidlab o'tkanimizdek, XII–XIII asrlarda Hindistonning shimoliy qismida muhim siyosiy voqealar ro'y beradi. Bu Hindistonda o'rta asrlarda feodal jamiyat rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanadi. Tarqoq hind roja(xon)larini mag'lubiyatga uchratgan Afg'onistonlik Muxammad Go'riyning bostirib kelishi natijasida XIII asr boshida Shimoliy Hindistonning deyarli barcha hududlarida yagona davlat – Dehli saltanati barpo etiladi. Mamlakatni boshqarish sulton atrofiga yaqin bo'lgan safdoshlari O'rta Osiyolik, Afg'onistonlik, Eronlik va boshqa amaldorlar qo'lida edi. Hind feodal xukmronligi siyosiy qaramlik ichida saqlanib qolgan bo'lsada kuchsizlangan edi. Shu davrdan boshlab Hindistonning Dehli saltanati xukmronligi ostida badiiy va madaniy

hayotda keskin burilishlar kuzatiladi. Asosiy til – forsiy hisoblanardi. Davlat ishlari asosan shu tilda olib borilgan. Sulton saroylarida Hindiston, O'rta Osiyo va Eron musiqasi yangrardi. Madaniy hayotning turli jabhalarida hindlar va musulmonlar bir-biriga o'z ta'sirini o'tkazishar edi. Ayniqsa hind musiqasiga musulmon madaniyati ko'proq ta'sir qilgan.

Ikki madaniyatning uyg'unlashuvi musulmon va hindular hayotining barcha jabhalarida o'z izlarini qoldirdi. Musulmonlar sekin-asta mamlakatga moslashib oldilar. Shu tariqa hind va musulmonlar madaniyatining alohida unsurlari yagona uzilmas yaxlitlikda uyg'unlashdi. Asta-sekin musiqa, raqs san'ati, me'morchilik, rassomchilikda yangi va aralash uslublar paydo bo'ladi.

Musulmonlar islom dinini va bu bilan bog'liq bo'lgan madaniyat va san'at an'analari targ'ib qilar edilar. Ko'plab sulton va feodallar san'atning homiylari edi. Ular saroyga o'zlarining milliy an'analari nafaqat ona tilida, balki ular uchun begona bo'lgan forsiy tilida ijod etuvchi yirik hind san'atkorlarini taklif qilishar edi.

Dehli xukmdorlari orasida sulton Allouddin Xiljiy she'riyat va musiqaning shaydosi edi. U musiqa san'atini juda xush ko'rgan va shu sababli sozandaxonandalarni saltanatga yig'ar va ularni vaqti-vaqti bilan yuqori darajada rag'batlantirar edi.

Dehli sultoni Alouddin Xiljiy xukmronligi davrida buyuk hind shoiri, musiqachisi va bastakori Amir Xusrav Dehlaviy ijodining yorqin davriga to'g'ri keladi.

II. AMIR XUSRAV DEHLAVIY – BUYUK SHOIR, OLIM, SOZANDA VA «SANGITKAR» -BASTAKOR

Buyuk shoir, olim, sozanda Amir Xusrav Dehlaviy (1253-1325) ijodi nafaqat Hindistonda, balki ko'plab Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ham mashhurdir.

Uning to'liq ismi Yaminiddin Abul Xasan Amir Xusrav ad-Dehlaviydir. U 1253 yili Shimoliy Hindistonning Ganga sohili yaqinida joylashgan Patyala tumanida dunyoga kelgan. Otasi Amir Sayfuddin Mahmud O'rta Osiyoning Lochin (Kesh-Shaxrisabz) qabilasidan kelib chiqqan bo'lib, onasi esa hindistonlik edi.

Amir Xusrav Dehli sultonlari sulolasi xukmronligi davrida yashab ijod etgan. Bular: Nasriddin Mahmud (1246-1265), G'iyosiddin Balbana (1260-1287y), Qaykubod (1287-1290) xiljiy sulolasidan sulton Jaloliddin Firuzshoh (1290-1296), Alouddin Xiljiy (1296-1316), Tug'liqshoh (1320-1325) hamda Hindistondagi ko'plab tarixiy voqealarning shohidi bo'lgan. U 1325 yili Dehlida vafot etadi.

Amir Xusrav ko'plab she'riy, adabiy va tarixiy asarlarni yozib qoldirgan. Uning lirikasi beshta devondan iborat: «Tuxfat – as-sig'ar» (Yoshlik tuhfasi), «Vasat – al-hayot» («Umr o'rtasi»), «G'urrat ul-kamol» («To'liq mukammallik»), «Baqiyae noqiya» («Tanlangan qoldiqlar») va «Nihoyat al-kamol») («Mukammallik yakuni»). U Nizomiy Ganjaviyning dostoni asosida «Hamsa» asarini yaratadi. «Matla' al-anvor», («Yorug'likning chiqishi») «Shirin va Xusrav», «Layli va Majnun», «Oynai Iskandari» («Iskandar oynasi»), «Xasht bexasht» («Sakkiz jannat bog'i»).

Ushbu asarlardan tashqari «Devolroni Xizraxon» romantik poemasini yozgan hamda «Nux sepehr», «Qiron us-sa'dayn», «Tarixi Dehli», «Bahr al-asror», «Anis – al-qulub», «Toj – al-futuh», «Afzal al-favoyid», «E'jozi Xusravi», «Mirot as-safo», «To'g'liqnoma», «Xazoyin al-futuh», «Bexjat al-futuh», «Javohir al-baxr», «Manoqibe hind», «Taronai hindi», «Munojoti Xusrav», «Maktubote Xusrav» va boshqa ko'plab asarlar muallifidir. Hayotlik chog'idayoq Xusrav Dehlaviy shoir, olim, musiqachi sifatida tan olingan. Uning lirikasi esa, mislsiz, mashhurlikka ega edi. Xusrav Dehlaviyning ko'plab asarlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Uning qo'shiqlarini san'atkor-xonandalar sevib ijro etishgan. Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan hindaviy tilida yozilgan she'rlar, topishmoqlar, maqollar to'plami bizgacha etib kelgan. Uning o'zi hind folklorining katta bilimdoni edi. Arab, fors, hind so'zlaridan iborat «Xoliq Bari» hamma'no so'zlar lug'atini yozgan.

XVII asrning olimi, mashhur xonanda, sozanda Darvesh Ali Changiy o'zining «Risolae musiqiy» («Musiqi risolasi»)ning kirish so'zida o'z ustozlari orasida Amir Xusrav Dehlaviy nomini ham yodga oladi, hamda uning musiqi haqida yozilgan asarlaridan keng foydalanganligini aytib o'tgan.

Xusrav Dehlaviy Hindistonga fors kuylarini olib kelganligi setor va tabla kabi mavjud bo'lgan cholg'ularni mukammallashtirganligi haqida ko'plab fikrlar mavjud.

Uning badiiy va ilmiy meroslarida fan va san'atning ko'plab tarmoqlari haqida ma'lumotlar olishimiz mumkin. Xusrav Dehlaviy asarlarida musiqi haqida ma'lumotlar ham mavjud. Bu ma'lumotlar turli

xil xarakterga ega bo'lib, ko'p holatlarda musiqa haqidagi ma'lumotlar badiiy ko'rinishda etkazilgan, ayrim hollarda ilmiy xarakterga egadir.

Bu ma'lumotlar musiqaning turli masalalariga doir: musiqiy cholg'ular yoki musiqiy janrlar, musiqiy asarlar haqidadir.

Amir Xusrav ijodi haqida Hindistonning birinchi bosh vaziri, buyuk siyosiy arbob Javoharlal Neru shunday yozadi: «U buyuk sozanda edi, hind musiqasiga ko'plab yangiliklar kiritgan... uning qo'shiqlarini hozir xam tez-tez ijro etishadi, ularni shimoliy va markaziy Hindistonning shahar va qishloqlarida eshitish mumkin. Men bundan 600 yil muqaddam yozilgan qo'shiqlar hozirgi kungacha mashhurlikni saqlab qolganligini va xalq tomonidan matnni xech qanday o'zgartirishsiz ijro etib kelinayotganligini boshqa misollarda bilmayman».²

Biroq Amir Xusrav tomonidan yozilgan hindaviy tilidagi asarlar ko'plab hind tadqiqotchilarida muallifligiga shubha uyg'otadi. Ularning fikricha Amir Xusrav asarlaridagi til u yashagan davr tiliga mos kelmaydi. Lekin qarama-qarshi nuqtai nazarlar ham mavjud.

Professor Vohid Mirza, Shijoat Ali Sandelvi va Safdor Ox kabi mashhur filologlar o'z tadqiqotlarida Amir Xusrav ko'p tilni biluvchi ekanligini, fors, arab, sanskrit tillarini yaxshi bilishini va hindaviy tilida asarlar ijod etkanligini isbotlashgan. Uning onasi hind bo'lganligi tufayli bu haqida forsiy masnaviylarida, «G'urrat ul-kamol» asarida qisman ma'lumotlar mavjud. Amir Xusrav Hindistonda tug'ilganligidan va Hindistonni go'zalligidan fahrlanar edi. O'z Vatanini sevar va uni she'rlarida madh etgan. Bu haqida quyidagi she'r va «Nux sipexr» («To'qqiz falak») masnaviysi misol bo'la oladi.

² Н. Жавоҳарлал. Открытие Индии. Москва, 1961. 256-257 betlar.

چو من طوطی ہندم، ار راست پرسی،
ز من ہندوی پُرس نغز گویم.

Men hind to'tisi erurman, gar rost so'rsang,
Mendan hindaviycha so'ragin, uni yaxshi ayturman!

Ma'lumki Amir Xusrav ko'p asarlarini fors tilida yozgan. SHu bilan birga arab tilini ham yaxshi bilgan, lekin u o'z ona tili hindaviy tilini arab tilidan ustun qo'ygan. Keyingi misralarda esa hindaviy tili turk va fors tillaridan yaxshi deb xisoblaydi. U o'zi haqida shunday deydi:³

ترك ہندوستانییم من ہندوی گویم چو آب،
شکر مصری ندارم کز عرب گویم سخن.

Men Hindiston turkiysi, hindaviyni bilurman suvdek,
Shukur, misrlik emasman, arabdan aytsam-da so'z.

Shu bilan bir qatorda hindaviy tilini turk va forsiy tillardan ustun qo'yadi:

اثبات گفتم ہندیہ حُجَّت کہ راجح است،
بر پارسی و ترکی از الفاظ خوش گوار.

Hindcha isbotin desam, hujjati erur ravshan,
Forsiy-u turkiyda so'zlar bo'lgay go'zallik bilan.

Uning fors tilida yozilgan dostonlarida nafaqat hindaviy tilidagi alohida so'zlar, balki yarim fors, yarim hindaviyda rexta uslubida yozilgan bir nechta she'rlar ham uchraydi⁴:

خار شدم، زار شدم لثه گیا،
یار نہیں دیکھتا ہے سوئے من.
در غم ہجر تو کمر ٹوٹہ ہے
بی گنہ ہم ساتھ عجب روٹہ ہے

³ Safdor Ax. Amir Xusrav – hind shoiri. Bombay, 1966. 19 bet.

⁴ Shu manba. 40 bet.

Xor bo'ldim, zor bo'ldim, sensiz jonim,
Yor menga boqmassan, nedur degin gunohim?!
Hijroning g'amida yig'lab, bo'ldim-ku ado,
Begunohni azoblash emasmi ajib sado?!

روى تو رونق شكن آفتاب،
سرو پيش قد تو بو ته ہے۔

Yuzing nuri oftobni ham uyatga qo'yar,
Qadding oldida sarv ham hayoga to'yar.

ر خسرو تو نه گفته بي ته،
وه چه كند بهاگ ميرا پهو ته ہے۔

Xusravga demading: «Beri kelgin!» deb jonim,
Nima qilar u bechora, xok uzra sochganda qonim?!

Amir Xusrav faqir inson haqidagi «Ze hole miskin» («Azob chekuvchining holati») mashhur g'azalida u fors tilida qanday yoza olsa, hindaviy tilida ham she'rlarni mahorat bilan yoza olishini isbotlagan. Shoir birinchilardan bo'lib, bu g'azalni rexta uslubida yozgan. G'azal insonning ichki dunyosini, uning alam va azoblarini kuylaydi. Hozirgi vaqtda bu g'azal mumtoz ashulalarni ijro etuvchi hofizlarning orasida juda mashhurdir. Hindiston-Pokistonning qavvali janrida kuylovchi xonandalar uni juda katta mahorat bilan ijro etishgan.

ز حال مسكين مكن تغافل،
ئرائے نيناں بنائے بتياں.

Miskinning holidan g'afatda qolma,
Ikki ko'zidur go'yo billurdek olma.

كه تاب هجران نه دارم اے دل،
نه ليهو كاہے لگائے چھتياں.

Hijronga chiday olmasman, ey dil,
Ko'nglimdan istayman, kelgin yonga kel!

چو شمع سوزان، چو ذرہ حيران،
هميشه گريان بعشق آن ماه.

Go'yo kuygan sham, go'yo hayron chang misol,
O'shal oy ishqida giryonman, giryon.

نه نيند نيناں، نه انگ چينا،
نه آپ هي اوئے، نه بهيجے پتياں.

Ko'zlarda uyqu yo'q, tanamda orom,
Na yonimga kelmas, na jo'natmas xabar!

شبان هجران دراز چون زلف،
روز وصلش چو عمر کوتاه.

Hijron kechasi zulfidek uzun go'yo,
Visol kuni esa umrim kabi qisqa-ku oh!

سكهي پياكو جو ميں نه ديكهوں،
تو كيسے كاٹوں اندھيري رتياں.

Bu zulmat kechada chorlamaysan nechun, dilbar,
O'z shodligu rohatingdan bermaysan xabar?!

يكا يك از دل بصد فرېم،
به بُرد چشمش قرار و تسكين.

Birma-bir dilimdan yuz aldov bo'lar:
Nozlaridan qalbimga taskinlik to'lar.

كسے پڑی ہے جو جا سنا دے،
پيارے پيو كو ہماری بتياں.

Kimsa bormi, mening desa ahvolim?!
Yorimga aytsa u bemorlik holim?!

بحق روز وصال دلبر،
كه داد مارا فریب خسرو بر.

Dilbar visolin kunlari haqqi,
Xisrav menga bu dam firib berdi-ku!

دُر اُنے راکھوں سمیت ساجن،
جو کھنی پاؤں دو بول بتیان.

Kelgin yonimga, aytay senga dil izhorim,
Sevgilimsan san mening, ham biru borim!

Amir Xusravning hindaviy tilidagi ijodiy merosi xalq og'zaki ijodining ildizlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Dehli sultoni Allauddin Xilji xukmronligi davrida buyuk shoir va musiqachi Amir Xusrav Dehlaviy ijodining yorqin davri to'g'ri keladi. U hind mumtoz musiqasi sarchashmasi sanalmish «Raga»ni ustozona tarzda (professional darajada) o'rgangan. O'sha davrda hind mumtoz musiqasida raganing uchta asosiy uslubi mavjud edi: ular «Dhrupad», «Dxamar» va «Xayal»dir. Raganing uchinchi uslubi, ya'ni «Xayal»ning asoschisi Amir Xusrav Dehlaviy sanaladi.

Dxrupad asosiy, qat'iy va doimiy hisoblanib, to'rt qismdan iborat: Sthayi, Antara, Sanchari va Abhog. Dhrupad uslubi o'zining to'rtala qismi bilan xalq orasida katta mashhurlikka ega. Boburiylar sulolasining namoyondasi Akbarshox saroyida xizmat qilgan mashhur xonanda Tan Sen «Dhrupad» ragasini katta muhabbat bilan talqin etgan.

Raja Man Singx «Dhrupad» uslubining mashhur ijrochisi hisoblanadi. Raja Man Singxdan so'ng bu uslubni musulmon ustozlaridan sanalmish Zahiriddin Haq Allahbandixon, Naziruddinxon va Kalanxonlar davom ettirishadi.

«Phalgun» (fevral-mart) to'linoyida sevgi xudosi Kamaga bag'ishlangan bahor bayrami «Holi» nishonlanadi. «Holi» – ranglar bayramidir. Dhamar uslubi asosan «Holi» milliy bayramida ijro etiladi. Shovqinli olomon, bayramona kiyingan kishilar shahar va qishloq ko'chalarini to'ldirib, o'tib ketayotganlarga rangli suv, qizil kukunlarni yuqoriga sepishadi. Hazil-mutoyiba, kulgi – bayramning asosiy belgilaridir. Qari va yoshlar bu xalq bayramida ishtirok etishadi.

Uchinchi «Xayal» uslubi lirik xarakterga ega bo'lgan janrdir.

Amir Xusrav o'zining ko'plab qo'shiqlarida xalq folklorlari namunalarini qo'llagan, ularni Shimoliy Hindistonning turli viloyatlarida ijro etishadi. Yomg'ir mavsumi – «Barsaat»da barcha o'smir qizlar quyidagi qo'shichni kuylashadi.

وہ گئے بالم وہ گئے ندیو کنار،
آب پار اتر گئے ہم تو رہے اروار.

Yoningga borurman, dedi aldab dilbarim,
Ko'p vaqt o'tdi ham, ko'z ko'rmas gavharim.

Ushbu qo'shiq qizlar uchun maxsus yozilgan. Shu bilan birga, Amir Xusrav yigitlar uchun ham qo'shiq yozgan. Bu qo'shiq yomg'ir mavsumi «Savan» (iyul-avgust) oyida ijro etiladi⁵.

امان میرے بابا کو بعضی بھیجو جی، کہ ساون آیا
بیٹی تیرا بابا تو بوڑھاری، کہ ساون آیا
امان میرے بھیا کو بھیجوری، کہ ساون آیا
بیٹی تیرا بھیا تو بالاری، کہ ساون آیا
امان میرے ماموں کو بھیجو جی، کہ ساون آیا
بیٹی تیرا ماموں نوبا نکاری، کہ ساون آیا

Onajon, otam chorlang, yomg'irlar mavsumi meni ketursin,

Qizginam, sen tomon ketdi otang emagin g'am.

Onajon, ukam qachon kelur, axir meni ketursin,

Qizginam, axir ukang hali yosh-ku, totmagin alam.

Onajon, otam qani, yomg'irlar mavsumi meni ketursin,

Qizginam, otang meni tinglamas, menga qilmagin sitam.

«Savt ul-muborak» kitobining muallifi Vojid Ali va «Amir Xusrav Dehlaviy xayoti va ijodiy faoliyati» kitobining muallifi professor Vohid Mirza o'zlarining kitoblarida Amir Xusrav ko'plab kuylar bastalaganligini yozishgan⁶.

⁵ Safdor Ax. Amir Xusrav – hind shoiri. Bombay, 1966. 27 bet.

⁶ Vohid Mirza. Amir Xusrav Dehlaviy. Deli, 1969. 45 bet.

U setor va tabla kabi cholg'ularni va «kavvali» mumtoz janrini yaratgan. Bu janrda masnaviylar, ilohiy madhiyalar, she'r va g'azallar ijro etiladi.

Quyida Amir Xusrav Dehlaviy bastalagan kuy nomlari keltiriladi:

1. **Majir** – bu raga 2 kuy, ya'ni hind kuyi «Gora» va fors kuylaridan biri uyg'unligidan iborat.
 2. **Sazgariy** – «Purbi», «Gora», «Kangali» va fors kuylaridan biri bu Sazgari ragasida mujassamlashgan.
- Amir Xusrav o'zining «Qiron-us-Sa'dayn» asarida bu raga haqida to'xtalib o'tadi.

زمزمه سازگری و عراق،
کرده به گلبنگِ عراق اتفاق.

«Sazgari» zamzaması bilan «Iroq»,
«Iroq»ning «Gulbang»iga bo'ldi ittifoq!

«Sazgari» kuyi o'zida «Gulbang» hamda «Iroq»ning yoqimli ohanglarini qamrab olgan.

3. Yaman yoki Eman «Xindol» va «Nayriz» ikki kuyidan iborat.
4. «Ushshoq» – «Sarang», «Basant» va «Navo» kuylaridan iborat.
5. «Maofiq» – «Molol», «Gori», «Dugoh» va «Xuseyni» kuylarining uyg'unligidan tashkil topgan.
6. «G'anam» – u bu ragani «Purbi» kuyini o'zgartirib bastalagan.
7. «Zilaf» – bu ragani «Qhat» va «Shahnoz» kuylari uyg'unligida bastalagan.
8. «Farg'ana» – «Kangali», «Gori» va «Farg'ana» kuylari mujassamligida yaratgan.
9. «Sarparda» – «Sarang», «Bilaval» va «Rost» kuylaridan iborat.
10. «Behriz» – «Jakar» va bir fors kuyi uyg'unligida yaratilgan.

11. «Firdavst» – «Kanhra», «Gori», «Purbi» va bir fors kuylaridan iborat.

12. «Manam» – «Kalyan» va bir fors kuyi uyg'unligida bastalangan.

«Darpan ragasi» kitobining muallifi Faqirulla Amir Xusrav «Sazgari», «Bexraz», «Ushshoq» va «Maofiq» kabi ragalarini yaratib, iste'dodli bastakor ekanligini ko'rsatdi. Qolgan ragalarga ayrim o'zgarishlar kiritib, ularga yangi nom bergan, deb yozadi.

Yuqorida keltirilgan kuylardan tashqari Amir Xusrav quyidagi kuylarni ham bastalagan:

سویله – «Naqsh», نقش – «Tarana», ترانه – «Nigar», نگار – «Qavl», قول – «Soxla», بسیط – «Basit», خیال – «Xayal».

Vohid Ali o'zining «Amir Xusrav Dehlaviy» kitobida quyidagi ragalar Amir Xusrav tomonidan bastalanganligi haqida yodga oladi:

«Tarona», «Djhand», «Torbandist», «Qavl», «Qalbana», «Naqsh», «Gul». Abulfazl bin Muborak Allomi, «Oynae Akbari» kitobining «Musiq» bo'limida Deli musiqachilari Amir Xusrav Dehlaviy bastalagan «Tarona» va «Qavl» kabi mashhur kuylarini ijro etishar edi, deb yozadi⁷.

Hozirgi vaqtda ham Amir Xusrav Dehlaviyning «Xayal», «Tarona», «Yaman» va boshqa ragalari Hindiston, Pokiston, Bangladesh va Afg'oniston musiqachilari tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda.

Professor Vohid Mirza o'zining «Amir Xusrav» kitobida Amir Xusravning ijodi va iqtidori haqida shunday yozadi⁸: «U iqtidorli va iste'dodli shoir musiqachi va bastakor bo'lib, musiqa ilmini yaxshi bilgan, musiqiy ijodida mukammallikda esa musiqaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. O'sha davrning ko'plab sozanda va xonandalari Amir Xusravning shogirdi

⁷ Shu kitob. 26 bet.

⁸ Vohid Mirza. Amir Xusrav Dehlaviy. Delhi, 1969. 25 bet.

bo'lishni baxt deb bilganlar. Dehli sultoni Allouddin Xiljiy xukmronlik qilgan davrda mashhur sozanda va xonanda Nayak Gopal xalq orasida juda mashhur bo'lib, uning yuzlab shogirdlari bor edi. Shogirdlari unga hurmat bildirib, maxsus o'rindiqlarda ko'tarib yurar edilar. Kunlarning birida sulton Allouddin Xiljiy saroyida musobaqa o'tkaziladi. Unda Nayak Gopal va Amir Xusrav o'z shogirdlari bilan qatnashadilar. Gopal o'z dasturini yakunlaganida navbatni Amir Xusravga berishadi. Amir Xusrav o'z shogirdlari bilan bir necha yangi o'zi bastalagan kuylarni ijro etadi. Saroyda jimlik xukmron suradi va hamma uni diqqat bilan tinglar edilar. Nayak Gopal A.Xusrav bastalagan musiqani eshitib, hayratga tushadi. Saroydagi boshqa xonanda-yu sozandalar va hatto sulton Allouddinning o'zi ham Amir Xusravni tabriklaydi. U musiqa bo'yicha eng yuqori «Nayak» unvoniga sazovar bo'ldi. Amir Xusrav musobaqada g'olib bo'lganligining asosiy sababi shuki, u nafaqat hind mumtoz musiqasini, balki Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining san'atini juda yaxshi bilganligidan dalolat beradi. U bu haqida «Nuh sepahr» («To'qqiz falak») masnaviysida yodga oladi. Bu erda u Dehli shahrini madh etib, uni Bog'dod, Qohira, Tabriz, Isfag'on, Buxoro va Xiva kabi shaharlar bilan taqqoslaydi. Yuqorida ta'kidlangan masnaviyda Hindistonning xonanda sozanda va raqqosalarini madh etadi.

Uning she'riy ijodini diqqat bilan o'rganishda Amir Xusrav musiqa ilmining nazariy asoslarini va musiqa an'alarining o'ziga xos xususiyatlaridan chuqur bilimga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. U she'riyat va musiqani bir xil darajada mukammal bilganligini o'zining asarlarida aytib o'tgan.

Amir Xusrav Dehlaviyning she'riyat va musiqa haqidagi estetik qarashlari o'zining «Tarjehe she'r bar musiqi», ya'ni «She'riyatning musiqaga nisbatan ustunligi» nomli qit'asida o'z aksini topgan.

Sizning e'tiboringizga Amir Xusravning «She'riyatning musiqaga nisbatan ustunligi» haqida⁹ qit'asini xavola etamiz.

مطربى ميگفت خسرو را که ائے گنج سخن،
زان که این علم است کز دقت نیاید بر قلم.
علم موسقى ز جنس نظم نیکوتر بود،
وان نه دشوار است کاندز کاغذ و دفتر بود.

Mutrib dedi Xusravga: «Ey, ganji suxan!

Bu ilmni anglagil, qo'lga kirmas qalamdan.

Ilmi musiqiy nazm jinsidan afzal erur,

Chunki nazm dushvor emas, bo'lsa kog'az, daftardan».

پا سخنش گفتم که من در هر دو معنی کاملم،
هر دورا سنجیده بر وزنی که آن بهتر بود.

Javob berdim so'zigaki, ikki ma'noda ham kamina kamolat sohibi,
Ikkovida ham sinab ko'r, qaysi vazn senga ajib-behtar erur.

نظم را کردم سه دفتر ور بتحریر آمدی،
علم موسیقی سه دیگر بود ار باور بود.

Nazmni uch daftar qildim, agar qilsang tahririni,
Senga ilmi musiqiy ham uch bo'lur, gar bovar erur.

فرق من گویم میان هر دو و معقولی و راست،
تا دهد انصاف ان کز هر دو دانشور بود.

Ikkovin farqin aytay, bo'lsin ma'qul birla rost,
Toki insofin berib, ul ikkisiga donishvar erur.

نظم را علمی تصور کن به نفس خود تمام،
کونه محتاج سماع و صوت خنیاگر بود.

Nazmni ilm deb, ayla tasavvur o'zingga tamom,
Savti birla samo'siga muhtoji xunyogar erur.

⁹ Amir Xusrav. Kulliyot. 196 bet.

گر کسی بی زیر و بم نظم فرو خاند رواست،
نی بمعنی هیچ نقصان، نی بلفظ اندر بود.

«Zeru bam»siz nazmni o'qisa kimsa ayb emas,
Ma'ni-yu lafzi buzilmas, ma'ni-yu lafzi gar erur.

گر کند مطرب بسی "هان-هان" و "هون-هون" در سرود،
چون بسخن نبود، همه معنی او ابتر بود.

Mutrib agar qo'shiq aro «hon-hon»u «hun-hun» aylasa,
Gar so'zi xush bo'lmasa, ma'no bad-u badtar erur.

نای زن را بین که صورت دارد و گفتار نی،
لا جرم، در قول محتاج کسی دیگر بود.

Naychini ko'rki, surat boru aytimi yo'q bechora,
Odamzot so'ziga u shubhasiz muhtoj-u xuni jiggar erur.

پس، در این صورت ضرورت صاحب صوت و سماع،
از برای شعر محتاج سخن پرور بود.

Bas, bu suratda zarurat bor samo'-u savt sohibiga,
She'r uchun muhtoj bo'lurki suxanparvar erur.

نظم را حاصل عروسی دان و نغمه زیورش،
نیست عیبی گر عروس خوب بی زیور بود.

Nazmdur kelinchak misoli, nag'ma uning zevari,
Aybi ham yo'q, gar kelin go'zal-u, bezevar erur.

من کسی را آدمی دانم که داند این قدر،
گر نداند پرسد از من و نه نپرسد خر بود.

Men har kimsani odam sanarman, u agar
Bilmagan so'rasa, so'rmasa u johil erur.

Musiqani she'riyatga tobe bo'lishi shundan iboratki, agar she'riyat kelinchakka
qiyoslansa unda musiqa uning bezagidir, ya'ni musiqa mustaqil emas, u faqat
she'riyatning (kelinchakning) bezagidir. Bundan tashqari Xusrav Dehlaviy kelinchak
bezaklarsiz ham go'zal bo'lishini ta'kidlaydi. U buni she'riyat va musiqaning muhim
estetik jihatlari deb hisoblaydi. Kim buni tan olmasa – u nodondir.

Dehlaviy «han-han», «hun-hun» ohanglarini misol qilib keltiradi. Bular hind
ohanglarida keng tarqalgan bo'g'inlardir. O'zbek ohanglarida esa «o», «ey», «jon»,
«voy-dodey» kabi hanglarga taqqoslash mumkin.

Amir Xusrav «han-han» va «hun-hun»larni me'yordan ortiq qo'llash qo'shiqni
mazmunini kamaytiradi, deb ta'kidlaydi.

III. AMIR XUSRAV DEHLAVIYNING MUSIQIY CHOLG'ULAR HAQIDAGI «MASNAVIY»LARI

Xusrav Dehlaviyning ko'plab she'rlari musiqiy cholg'ularga bag'ishlangan. Biz ularda u yoki bu cholg'ularning xususiyatlari, tashqi tuzilishi ijro uslubi va amaliyotini yoritganligini kuzatamiz. «Qiron as-sa'dayn» *قران السعدین* (Mukammallik cho'qqisi) va «No'h sepahr» *نہ سپہر* (To'qqiz falak) masnaviyalarida: nay, rubob, tanbur, rud, ud, borbad, chang, vina, sanj, kos va daf cholg'ularini ta'riflaydi.

Amir Xusrav Dehlaviyning «rubob»ga bag'ishlangan masnaviysida rubobga quyidagicha ta'rif beriladi.

Rubob – torli–chertma cholg'u asbobi bo'lib, to'rtta tori bor. Rubobning tashqi ko'rinishi tanburni eslatadi, biroq bosh qismi keng, pardalari kamdir.

صفت کاس و رباب و بسعر کفچه دست،
که دران کاسه خبالیست نغم چند الوان.

Kos-u rubob birla qancha dastbandlar aro,
YAxshiroq bo'lsa kosa, top ar alvoni nag'malar baho.

خیره رباب از شغب دلنواز،
برده دل از مردم و جان داده باز.

Ruboblarning yaxshisi albatta bo'lar dilnavoz,
Odamzod ko'nglin olur, jonin berur ozma-oz.

نبض بگیرندش و رنجور نے،
پرده به بندندش و مستور نے.

Tomiri yaxshi urar, demak, u bemor emas,
Pardasi banddinda bo'lsa, ko'rinishga or emas.

زخمه نیرش جو تراشیده گشت،
حلق نه کاو از خراشیده گشت.

Taniga zaxm etib, taroshlandi uning,
Buqa kabi halqumi xaroshlandi uning.

زخمهء زنان گشته ز بهر فغان،
خون جگر خورده پر غم زبان.

Qalbiga etdi zaxm, har bir fig'on uchun,
G'amga to'lgan, jigarxun zamon uchun.

روی ورق ساخته خط زدود،
گرچه ننگد بکتابت سرود.

Sahifa ustiga xat chizdi u,
Kuy bo'lmas garchi kitobatda xushro'.

او چو زده راه حریفان بسی،
زخمه زده در حق او هر کسی.

Raqiblar yo'liga u raxna solsa agar,
Har kimsa unga zaxma solgay magar.

گرچه که در جای گرفتش کند،
خود غلطد قید ترا افکند.

Garchi uning joyini olmoq istar,
Domingga sening yiqilib tushar.

چون به بلندی کشد آواز او،
پرده در زهره شود ساز او.

Gar balandga tortsa u ovozini,
Pardasi Zuhra bo'larkan sozini.

ور کند آواز حزین که خروش،
نشود آواز خود ار سست گوش.

Gar bo'lsa hazin ovozi baland,
Karga hechdur bo'lsa ham ovoz chand.

کاسه تهی وز نغم نیش او،
دست کسان کفچه شده پیش او.

Kosa bo'sh-u, uning sasi erur nag'masi,
Odamlar qo'li esa atrofida kafchasi.

بسته جز چند بچندین رسن،
طرفه که خود گنگ و رسن در سخن.

Bog'lansa ip necha-necha martalab,
Gung emas, ey birodar, ip so'zlar adab.

طافل برشم كزو تارش چهار،
برده دو شش ساخته زان چار تار.

Uning o'g'li ipak, torlari bo'lur to'rtta,
O'shal to'rt tordan erur pardasi ikki olti.

سفت دف كه درو دست كشان كويد پاى،
سحن گر داشته و كوش ما بين كه چه سان.

Daf haqida masnaviy

Bu masnaviyda daf cholg'usi haqida so'z yuritiladi. Bu cholg'uni qo'llarni yuqoriroq ushlab yoki oyoqlar orasiga qo'yib chalinadi. Dafdan tovush membrananing markazi va chetlariga zarb berish natijasida hosil bo'ladi. Daf – yog'ochli aylanma cholg'u bo'lib, unga teri tortiladi. Aylanmaga metallardan yasalgan halqachalar birlashtiriladi. Ular esa ijro jarayonida musiqiy asarning usuliga jo'r bo'ladi.

Dafning holi shul erur: qo'l urar, oyoq qo'zg'alar,
Cheti-yu o'rtasin urding nima, har yoq qo'zg'alar!

دايره دف چو حصارى ز چوب،
صحن وى از پنج عروسك بکوب.

Dafning doirasi bo'lar Hisor yog'ochi,
Tegsin unga kelinchakning besh barmog'i.

زهره دورش بسرود آمده،
چمبرش از چرخ فرود آمده.

Davrning Zuhrosi qo'shiqqa keldi-yo,
Charxning chambari zaminga keldi-yo.

بر زبردست گرفته به سست،
گاه زبردست و گه زبردست.

Zabardastning olishishi buncha sust,
Goho dushmanlik qilur, gohida do'st.

بسته جلاجل بکمر جا بجا،
چون کمر چرخ جلاجل نما.

Kamarga qo'ng'iroqlar bog'landi-ku jo-bajo,
Hu kamar ham go'yo charxi qo'ng'iroq namo.

چار دهان و دو زبان در دهان،
نغز سخن ليك دور در زبان.

To'rt og'iz-u ikki til og'zidadur,
Yaxshi so'z bor, lek gunglik bo'g'zidadur.

بر سخن نغز كه با دوست گفت،
آن همه در پرده و در پوست گفت.

Yaxshi so'zni do'stiga izhor etar,
Barchasin o'z pardasida kor etar.

گشت دو رو ليك چو بر روى خورد،
دستكاه خود همه يك رويه كرد.

Ikki yuzlik edi-yu, boqsam yuziga magar,
Jamlagan o'z qo'lchasin bir yuzaga jam etar.

بر كف مطرب ز اصول لطيف،
گاه تقيل آمد و گاهى خفيف.

Mutribning qo'lida chiqdi latofatlik usul,
Goh saqil-u goh xafif, yordan sharofatlik vusul.

كه زنى لرزه كند پوستش،
آتش و خورشيد بود دوستش.

Teriga ursam agar zarbai xushado,
Otash bila quyosh menga bo'lar oshno.

گاه زخشكى چو شود گرم تاب،
گر دهد اواز بخواهد جواب.

Goho bo'lar quruqlik issig'-u tob,
Sado bersang agar, undan kelar javob.

Chang haqida masnaviy

صفت چنگ که مویست چو تن يك ساقش،
موی ساق دیگرش تا بزمین آویزان.

Changning holin ko'r, go'yo bir tan torlari,
To zaminga osilgan go'yo hamma borlari.

چنگ سر افکنده و سر افراخته،
موی بمویش بهتر ساخته.

Changning boshi egik hamda bo'ldi xam,
Torma-tor bo'lib sharofat keldi jam.

یکشبه ماهی ز سر انگیخته،
سی شب و سی روز در امیخته.

Bosh egibdi oyda faqat bir kecha,
To'planibdi o'ttiz kunduz, o'ttiz kecha.

غم کمانی و زهش هشت و چهار،
زخمهء پیکانش بجان کرده کار.

G'am ema, sasi uning to'rt va sakkiz,
O'qi o'zgacha bo'lib, ko'nglin etdi jiz-jiz.

کشی کاغذ بدو بحرش گذر،
کاغذ او ناشده از دور تر.

Qog'oz olib, ikki bahrin tortaver,
Qog'azin qilmay uzoq qo'limga ber.

رشته که در گردن خود او رید،
گردن او را شده حبل الوریید.

Bo'yniga u zo'r arqon bog'ladi,
Eng yaqin tomir deya o'shal on dog'ladi.

پر عبا پوش ببزم شراب،
پر ولی ساخته بهر شباب.

Go'zal chakman kiygin-u, sharoblar bazmiga,
Bu yarashur, ey do'st, o'smir-shaboblar azmiga.

گرچه چو معشوق کنندش ببر،
هم دهد از ناله عشاق اثر.

Ma'shuq uni bag'riga tortsa agar,
«Ushshoq» kuyi nolasi qilgay asar.

بس که نمادش برگ از ناله خون،
رگ بزنی خوش نیاید برون.

Nolalardan tomirda qon qolmadi,
Xush nola bo'lmasa ul jon olmadi.

صدای باریک چو مو یافته،
زان همه مو چند رسن تافته.

Tola-i ingichka sadolar chiqarur,
Necha tola birlashib arqon bo'lur.

هر سر مو زان رسن جان نشان،
هست ز باریک علم بر نشان.

Har bir soch tolasiga bog'langan jon,
Soch tolası alomat nozikligidan nishon.

پرده ز ابریشم و از مو طناب،
گاه بریشم گهی موی تاب.

Pardasi ipakdan yo soch tolasidan bo'lsa ham,
Goho ipak, gohi tola jonimgadur pur alam.

هست لباسش ز بریشم مقیم،
هم نکند پای برون از کلیم.

Bo'lsa garchi ipakdan libosi yorimning,
Gilamdan chiqargan oyog'i oldi borimni(ng).

Nay haqida masnaviy

Quyidagi masnaviyda «nay» cholg'usi haqida ma'lumotlar berilgan. Uning tuzilishi, ijro imkoniyatlari haqida ham aytib o'tilshgan.

صفت نای که هر لحظه زدم دادی او،
کلهء مطرب پر باد شود چون ابنان.

Nayning holi shu: har lahza berdim dodini,
Mutrib boshi to'lgan nafasga, o'ylama barbodini.

Nay bog'lagay og'izni, ko'p gapirmas,
Ilon yanglig' bo'lib nay afsun demas.

Qora ilon teshik aro yo'l aylamish,
Ul ilon esa teshikni o'n aylamish.

Shakar eb, afsun etuvchi ul ilon,
Ilonchi qo'lida tushar o'yinga chunon.

Goho suratda bo'lib zanglar sayqali,
Goho ma'no axtarib ranglar talabi.

Turfa siyohrang bo'lib Iroqdan keladur,
Kuygani dardu hasrat, firoqdan keladur.

Og'zi yo'q bo'lsa ham do'stni ezar so'zi,
So'zi yo'q bo'lsa-da do'sti bog'lar og'izi.

Gardanin ursang ham xam bo'lmas boshi,
Kuy chiqmas, andin puflamaguningcha boshi.

Havaskorlik birlan qo'shiq loy bo'lur,
Ashulasin tingla poyma-poy bo'lur.

نای دهن بسته و بسیار گوی،
نای کلویش بفسون مار کوی.

مار سیه کرده بسوراخ ره،
ماریکه بینی و سوراخ ده.

مار شکر خواره و افسون پذیر،
گشته بدست دیگران مارگر.

گاه بصورت شده زنگی سلب،
گاه بمعنی شده رنگی طلب.

طرفه سیاهی ز عراق آمده،
سوخته و درد و فراق آمده.

نیست دهن تاش بکوبد سخن،
نیست سخن تاش ببندی دهن.

سر نکند پیش تو گردن زنی،
دم نزند تا سر او پفکنی.

چون هوس آید بسرود ترش،
دور کند هر چه بود در برش.

مطرب کیرا سخن و سحر ساز،
سر ز شش کنده و پیوسته باز.

گاه سخن گشته سراسر زبان،
بهر نوا بوده لبالب دهان.

باز کند لب چو زبان آوری،
لیک زبانش بلب دیگری.

کرده بهر دستی ز آواز تر،
زیر هر انگشت هزاران هنر.

خانهء چوبین بمیان بستون،
تتگدلی باد کز اران درون.

مطرب ازان دم که دمامد بداد،
دم بدم اندر سرش افتاد باد.

که چو دل سوختگان فراق،
نای فغان کرده براه عراق.

گه ز مخالف که نوازنده ساخت،
درست بگشت ار چه مخالف نواخت.

Mutriblarning xush so'zi, sehrlı soziga,
Olti bor boshin sila, muxlis bo'l ovoziga.

Goho tilga labo-lab so'zlar chiqur,
Kuylab og'izlar tamoman ko'pirur.

So'zlamog-chun garchi lablar ochilur,
Tillaridan qancha gavhar sochilur.

Qo'llaridan xush sadolar chiqsa gar,
Har bir barmoqdan kelar minglab hunar.

Yog'ochdan bo'lgan uy o'rtasida bor ustun,
Ichkarida ko'rgusi bir bechora nochor kun.

Mutrib o'shal dam nafaslar chiqarur,
Dambadam boshin egib qafaslar chiqarur.

Dili kuygan bechora tortar dard-firoq,
Nayi ham afg'onlar qilur «rohi Iroq».

Sozanda gar «Muxolif»dan aylasa navo,
Garchi xilof bo'lsa-da, aylagay undan ravo.

گاه ز اهل مهین وه که کهین،
ناله برون داد کهین و مهین.

Katta-yu kichik «Nay»ga muxlis bo'lsa gar,
Nola aylab ul barchani xushnud etgay magar.

گاه فروغ دم و نای بکام،
داد بفر غانه فراغی تمام.

Nafas rostlab gohida nayni qo'lga olur,
Zavq-u shavq birla «Farg'ona»ni kuyga solur.

بر دل عشاق که گشتن هنر است،
راست چو تیر آمده تیری زر است.

«Ushshoq» ko'ngliga yo'l topmoq hunar erur,
«Rost» bo'lib otilsa yoy topgani gavhar bo'lur.

تیره زن جنگ تهمتن مثال،
رخش روان کرده ترا دل چو زال.

Yoy otar erdi jangda Tahamtan misol,
Ko'ngil qo'yarsan qonin ko'rib misli Zol.

بستگی بر ببط مشکل کشای،
جای کشاده زلی بسته جای.

Barbat pardasi mushkillarni qilganda hal,
Zol o'z joyin berur kuy basta etgan mahal.

نغمه چو ریز و بم آهنگ برد،
زیر کشید و بحسینی سپرد

Nag'ma ohangi «rez» bila «bam» aylasa,
«Zer» o'zin tortib, «Husayniy» boshlanur.

زمزمه در سازگری در عراق،
کرده با سنگ عراق اتفاق.

Sozchi «Iroq»dan zamzama qilsa bo'lur,
Iroqning toshi birla tarozi og'ir kelur.

سازگری را همه خواهان شده،
نغمه او تا بسیار هان شده.

«Sozgari»ni istar barcha muxlislar,
Nag'masin ko'p tinglab ketar mushkillar.

Hindiston xonandalari haqida masnaviy

لعبتان هندوی هم جا بجای،
گشته هم پا کوب و هم نغمه سرای.

Hindcha o'yinlar bunda erur jo-bajo,
Raqs birla nag'malar ham topmish ado.

هر یکی را گاه قتل معنوی،
خنجر هندی زبان هندوی.

Har kimda bor qatli ma'naviy,
Hindning xanjari tilidur hindaviy.

این کشیده سرمه از دود چراغ،
رو داده او کرده در صد سینه داغ.

Bu surma tortmish chirog'ning dudidan,
Yuzidan yuz bora qolmish ko'ngil dog'idan.

او به پیشانی از صندل داده رنگ،
سوئی سیم آورده صندل را ز سنگ.

Sandalga peshona teri birla berdi rang,
Sandal toshi unga zar keltirmish qarang.

این سرودی گفت که آهو که بدشت،
بشنود نارد بصحرا باز گشت.

Bul qo'shiqni dashtda ohu tinglagan on,
U tomon sahroni qo'yib chopmish chunon.

او الاون را چنان بنواخته،
کآب حیوان را برود انداخته.

«Vina» sozin u chaldi shundoq etib,
Tiriklik suvin ichdi go'yo poq etib.

این گرفته تال روئین را بدست،
زان دو روی او همه یکرویه مست.

Engil usulda sozni chalgan zamon,
Barchaning ikki yuzi mast bo'libdi vassalom.

او کشیده تار پولادین بساز،
کاهنین دلها فتاده در گداز.

Po'lat torni tortib ul soz ayladi,
Tosh yuraklar erib parvoz ayladi.

این به نغمه زهرهء کیوان نسب،
آن بزیبائی مه زهره طرب.

Nag'masi birla nasabda Zuhra-yu Kayvon ko'rinmish,
Malohatli oy ham tarabda Zuhra ko'rinmish.

این ز لعل آب دار آتش نشان،
او بگفت سوزناک آتش فشان.

Namli labidan uning, ey voh, otash yondirur,
So'zlasa go'yo bu lablar sen tomonga o't sochur.

این میان شانہ مویش تا میان،
او میان چون موی و در مویش نهان.

Belga tushgan sochlari billur misol,
Sarv qomatiga yarashar tovus visol.

این چو طاوسان هندی جلوه گر،
او معلق زن چو مرغش از زبر.

U hind tovuslaridek bo'ldi jilvagar,
U muallaq qushlardek zeru-zabar.

IV. AMIR XUSRAV DEHLAVIY «QAVVALI» MUSIQIY JANRINING ASOSCHISI

Hindiston va Pokistonning tarixchi va musiqashunoslari «qavvali» mumtoz vokal musiqa janrining asoschisi buyuk shoir, olim, musiqachi Amir Xusrav Dehlaviy deb hisoblaydilar. Shu bilan bir qatorda u zarbli cholg'u «Tabla» va torli cholg'u «Setor»ning ixtirochisi hamdir.

«Qavvali» musiqiy janrining ilk ko'rinishi XIII asrga borib taqaladi. U vaqtda Hindistonda tasavvufning «Chishtiy» tarifati shakllangan edi. Ma'lumki, turk va fors so'fiylari jamoa bo'lib islom dinini targ'ib qilish uchun musiqadan foydalanishgan. Bu musiqa «Sama» deb atalali va keyinchalik Hindistonda «Sama» janri asosida fors she'riyati va hind musiqasi uyg'unligida «Qavvali» san'ati paydo bo'lgan.

Amir Xusravning ustozlari va murabbiysi Nizomiddin avliyo (XIII) uning mashhur, iste'dodli shogirdi, sozanda Amir Xusravning nazariy va amaliy tadqiqotlari tufayli «Qavvali» janri yangi shaklga ega bo'lgan deb hisoblaydi¹⁰. U mavjud bo'lgan kuylarni mukammallashtirgan, ularni «qavl» va «qalbana» kuylarining musiqiy bezaklari bilan uyg'unlashtiradi, qo'shiqchilikda yangi uslub yaratgan. U ushbu musiqiy janrda ijro etiladigan ko'plab she'r va g'azallar yozgan. Shu bilan bir qatorda mashhur shoir va olim Nizomiddin Avliyo (islomdagi «Shayxlar sultoni» maqomini olgan) o'zining shogirdini «musiqaning kaliti», ya'ni musiqani buyuk bilimdoni deb atagan.

Musiqashunos Ishfaq Salim Mirza «qavval» deb odatda «qavl» mumtoz kuyini ijro etadigan xonandani atashganini ta'kidlaydi. «Qavl» kuyi esa Amir Xusrav tomonidan yaratilgan. Ishfaq Salim Mirza musiqa haqidagi risolalarida «qavl» va «kalbana» mumtoz kuylari Amir Xusrav tomonidan yaratilganligini qayd etadi. Amir Xusrav «qavvali» so'ziga qaysidir mumtoz musiqa usulining nomini bergan bo'lishi mumkin. Shu tarzda «qavvali» so'zi «qavl»¹¹ arab so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ijrochilarini «qavvali» deb atashadi.

¹⁰ Пасулдаев З. «Жанр «Qavvali» в меринской музыке. Qo'lyozma. Toshkent, O'zDK kutubxonasi, 1979. 15 bet.

¹¹ Каол - 1) so'z, ifoda; 2) va'da bermoq, rozi bo'lmoq; 3) mumtoz musiqaning nomi.

XIII–XIV asrlarda mumtoz musiqaning bu janri Hindistonning butun shimoliy qismida keng tarqalgan va Dhrupad, Bheyrav hamda Darpan kabi mumtoz ragalar qatorida hind mumtoz musiqasida alohida o‘rin egallaydi.

Musiqashunos Muxammad Akram Xan o‘zining «Musiqaning xazinasini» kitobida qavvali janrining barcha shakllarini Amir Xusravning ijodiga taaluqli ekanligini yozadi. U ushbu janrning turlarini quyidagicha qayd etib o‘tadi:

- 1) «Bageysri qavvali». Gond va Mala tumanlarining xalq kuylari asosida.
- 2) «Sohni qavvali». Bradj tumanining musiqiy asarlaridan tashkil topgan.
- 3) «Bahar qavvali». Kanara tumanining kuylariga asoslangan.
- 4) «Basant qavvali». «Sohni va Pandjum bahar» kuylaridan tashkil topgan.

Usul bilan bir qatorda mumtoz kuy nomlari ham yodga olinadi.

Muhammad Akram Xan usullar haqida so‘zlaganida, Amir Xusrav 17 usul shakllarini yaratgani va ularning uchinchi kavvaliga tegishli ekanligini ta’kidlaydi va etti takt(theka)dan iborat. Bu usul zarbalarini quyidagi tartibda so‘zlar bilan ifodalasa bo‘ladi.

- 1) din
- 2) dhi
- 3) na
- 4) dha
- 5) ge
- 6) to
- 7) na

Amir Xusrav va uning izdoshlaridan so‘ng «qavvali» janri xalq orasida qanday holatda bo‘lganligini aytish mushkul, chunki musiqaning bu sohasida ishonarli manba va ilmiy izlanishlar juda kam olib borilgan.

«Qavvali» inson ruhiy kayfiyatiga ta’sir etuvchi musiqa bo‘lib, islom ta’limotini chuqurroq o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

«Qavvali» o‘zbek tiliga tarjima qilinganida – mumtoz shoirlar she’rlarini kuylash yoki guruhli ijro etish ma’nosini bildiradi¹². «Qavvali» ansamblida ishtirok etuvchi yakkaxon xonanda yuqorida ta’kidlanganimizdek, «qavval» deb ataladi, tarjimasida sozanda yoki xonanda ma’nosini anglatadi. Ular Xudo, uning payg‘ambarlari va avliyolarini madh etib kuylashadi.

Qavvali dastasi 10-15 kishidan iborat bo‘lib, «Qavvali» kuylashda asosiy (ikki) yakkaxon xonanda etakchi o‘rin egallaydi.

Qavvali yakkaxon xonandasi gilamga o‘tirib, uning atrofida turli puflama va urma sozlarda ijro etuvchi sozandalar o‘tirishadi. Ilgari ular gilam ustida yozilgan oq ipak chodirda o‘tirishgan, hozir esa tartibga ko‘ra baland sahnada gilamda o‘tirib ijro etishadi. Qavvali ijrochisiga fisgarmoniya va tabla kabi cholg‘ular jo‘rnovozlik qilishadi.

«Qavvali» tarkibi oddiy bo‘lib, ikki yakkaxon xonanda bir-biriga savol-javob tarzida kuylashadi. Aniq hisoblangan vaqtda xor qo‘shiladi. Bu shunday uslubki, bir bayt ijro etilgandan so‘ng uni xor takrorlaydi. Kompozitsiya sekin suratda boshlanib, asta-sekin vaja’ga kiriladi va hayajonni ortishi avjga olib keladi. «Qavvali» guruhidagi hamnafaslar (xor guruhi) usulli qarsak chalib, asosiy xonandaga usul beradi va unga jo‘r bo‘ladi.

«Qavvali» janrida g‘azal yoki ruboiy ijro etilishi mumkin. Qavvali she’rlari odatga ko‘ra fors, urdu yoki panjob tillarida yozilgan she’riy asarlardan iborat bo‘ladi. Qavvalchilar tomonidan ijro etiluvchi qo‘shiqlar XIII–XIX asr urdu mumtoz shoirlarining she’r, g‘azal va qasidalaridan iborat. Jumladan, Xusrav Dehlaviy, Kabir, Tulsidas, Surdas, Vali, Aurangbadi, Mir Dard, Mirza Sauda, Mir Taqi Mir, Mirza G‘olib, Muhammad Iqbol, Nazir Akbarabadi hamda tasavvuf g‘oyasini va diniy mafkurasini kuylovchi mashhur shoirlar she’rlarini uchratish mumkin.

Qavvali qo‘shiqlarida YAratganga muhabbat haqida, uning rasuli Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarga muhabbat haqida, payg‘ambarlar va avliyolar haqida, Chishtiy

¹² Qarang: З.Насуллаев. Жанр «каввали» в индийской музыке. Qo‘lyozma. O‘zDK, Toshkent. 1979, 11 bet.

tariqati (Hindiston) erdagi hayotning makruh ishlari, hamda sof dillik ibodatga diqqat beriladi. Masalan, ro'za yoki namoz Allohga muhabbat bilan qilinadi hamda ibodat qiluvchining yuragi xamisha Alloh yodi bilan band bo'lishi kuylanadi.

Bu she'riyat shunday yuqori darajada-ki, insonni to'liq tushunishga va to'g'ri idrok etish uchun bu tilni shunchaki bilish kamlik qiladi. Shu bilan bir qatorda ijrochi qavvali musiqa janrlari an'analari va tasavvuf ilmining o'ziga xos atamallari bilan tanish bo'lishi zarur.

Shunday mashhur ulug' joylardan biri Ajmir bo'lib, u erda Muynuddin Chishtiyning qabri joylashgan. Dehlida Baxtiyor Koki, Nizomiddin Avliyo hamda Hindistonning buyuk shoir va sozandasi Amir Xusrav Dehlayiy ziyoratgohlari bor.

Bu erlarda bayram kunlari qavvali dastalari bir-birini almashtirib, to'xtovsiz bir necha kun davomida o'z dasturlarini namoish etishadi.

Hozirgi vaqtda qavvali kechalari «Mexfil» deb ataladi. Odatda «Mexfil» shovqinsiz joylarda o'tkaziladi. «Mexfil»ni o'tkazish namoz vaqtiga to'g'ri kelmasligiga alohid e'tibor beriladi. Shu tarzda «Mexfil», odatda kechqurun kechki asr namozidan so'ng yoki ertalab tongi bomdod va tushdagi namoz o'rtasida o'tkaziladi.

Odatda «qavvali» kechalarida ikki guruh qavvalichilari ishtirok etadilar. Ular bir-birlari bilan aniq bir mavzuda madhiya, she'r va g'azallar asosida bellashadilar. Masalan, «Ollohga» va uning rasuli «Muhammad» (s.a.v.) ga muhabbat, ularni ulug'lash mavzulari kuylanadi. «Mexfil» 3-5 soat va undan ortiq davom etadi. «Mexfil» ya'ni «qavvali» kechalari shinavandalarga ruhiy ozuqa bag'ishlaydi.

Usta-san'atkorlar va ularning hamnafaslari deyarli barcha Sharq mamlakatlari Evropa va AQSHda mashhur bo'lib, ularning muxlislari juda ko'pdir.

Ularning nomlarini aytib o'tish mumkin. Masalan, «Hoji G'ulom Sabri Qavval» va hamnafaslari. Nusrat Fath Alixon va hamnafaslari, Rohat Alixon va hamnafaslari va boshqalar.

Malakali qavval-xonanda mumtoz musiqasida benazir usta san'atkor bo'lishi, xushovoz va kuchli ovoz sohibi bo'lishi va zalda o'tirgan tinglovchilar bilan samimiy, erkin muloqotda bo'la olishi lozim. Mexfil jarayonida qavval nafaqat

qo'shiq ortidan qo'shiq kuylaydi, balki bevosita zaldagi tinglovchilar bilan ham suhbatlashadi, ularga ruhiy ozuha beruvchi savollar berib, shu savollarga o'zi javob beradi. Shu bilan bir qatorda u tasavvuf haqida masnaviyalar, she'rlar bilan ham yaxshi tanish bo'lishi kerak (forsiy, urdu, panjob tillarida biritgan she'r va masnaviyalar bilan tanish bo'lishi shart). Qayd etilganlardan tashqari Qavallar Diniy ulamo – Shayxlardan duo olgan bo'lishi zarurdir.

«Qavvali» bu shunday musiqiy san'atdirkim, u ko'p yillar davomida otadan o'g'ilga, ustozdan-shogirdga shu tarzda avloddan-avlodga o'tib keladi. Lekin oilaning xohlagan a'zosi qavval xonanda bo'la olmaydi. Buning uchun muhim shartlar mavjuddir Jumladan, xonanda, yakkaxon 500 ga yaqin arab, urdu, hind, fors, panjob tillaridagi she'rlarni yoddan bilishi lozim. Hamda bu qo'shiqlar ohangining barcha takroriy va nozik tomonlarini eslab qolishi darkor. Bunday baxtga kamdankam xonanda sazovar bo'lishi mumkin. Eng muhimi, xonandaning ovozi sehrli xususiyatga ega bo'lishi, tinglovchilarni eng yuqori «vaja'd»ga, ya'ni «Hol» deb ataluvchi ekstaz holatiga tushira olishi kerak.

Qavvali guruhidagi biror-bir xonanda qo'shiqdagi baytlar ta'sirida Allohga yaqinlashish holatiga tushsa, shu she'riy bayt uning o'z holatiga tushguniga qadar ko'p marotaba takrorlanadi.

XOTIMA

Amir Xusrav Dehlaviy ijodini tadqiq etish jarayonida biz uni hind mumtoz va xalq musiqasi rivojiga katta hissa qo'shganiga guvoh bo'ldik. Uning asarlarida biz hind musiqasi, musiqiy cholg'u turlari, XIII–XIV asr xonanda, sozanda va raqqosalar haqida noyob ma'lumotlarga ega bo'ldik. Uning adabiy-musiqiy merosi jahon adabiyoti va madaniyati hazinasiga bebaho hissa qo'shgan.

Shuni ta'kidlash joiz-ki, Amir Xusravning ko'pqirrali ijodiy faoliyati adabiyotshunos, musiqashunos olimlar tomonidan tan olingan.

Musiqqa san'ati haqidagi ma'lumotlar uning she'riy merosida ifodalangan. Chet el mualliflarining ilmiy tadqiqotlarida Amir Xusravga to'liq bag'ishlangan urdu tilidagi «Amir Xusrav va musiqqa» maqolalar to'plami (Islamobod 1957) va professor Qudratulla Fotimiyning «Amir Xusro's contribution to indo-muslim tradition» (Amir Xusravning hind-musulmon an'anasiga qo'shgan hissasi) (Islamobod, 1985) monografiyasi bizgacha etib kelgan.

Amir Xusravning musiqiy faoliyati haqidagi fikrlar turli munozaralarga sabab bo'lgan. Professor Qudratulla Fotimiy uning musiqqa ilmiga kiritgan yangiliklarini faqat «Qavvali», «Tarana» va «Xayal» janrlari bilan chegaralaydi. Biroq, aksariyat olimlar Amir Xusravning hind musiqasiga qo'shgan hissasi beqiyos ekanligini ta'kidlaydilar.

Amir Xusravning musiqiy-nazariy, musiqiy-estetik qarashlarini o'rganishda tarixiy manbalar, musiqiy risolalari bilan bir qatorda uning asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi,

Amir Xusrav yashab ijod etgan davrdagi musiqqa, cholg'ular, musiqiy janrlar, musiqiy an'analar xususiyatlari, mashhur xonandalar va sozandalar, hind raqqosalari haqida ma'lumotlar uning devonlarida hamda masnaviyalarida bayon etilgan.

Amir Xusravning «E'joze Xusrav» اعجاز خسرو («Xusrav mo'jizasi») nomli entsiklopedik risolasining ikkinchi bobi musiqqa bag'ishlangan bo'lib, u musiqada asosiy va erkin me'zonlar deb ataladi. Amir Xusravning bu asari katta ahamiyatga egadir. Shu bois, bo'lajak Sharqshunos-musiqashunoslarimiz ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, degan umiddamiz.

MUSIQIY ATAMALAR

Bageshri	बागेश्री	Hind ragasining nomi.
Bam	बम	1) pastki (tovush, ovoz haqida); 2) bas.
Bandish	बन्दिश	1) kompozitsiya; 2) musiqiy asar.
Barbat	बरबत	kamonli-torli musiqiy cholg'u, udnung qadimgi ko'rinishi.
Barbatzan	बरबत زن	borbad sozini chaluvchi.
Barbatnavoz	बरबत نواز	Barbad sozini chaluvchi.
Basant (Vasant)	बसन्त	1) baxorgi mavsum; 2) hind ragasining nomi.
Baxar	بهار	hind ragasining nomi.
Bexraz	بهرز	mumtoz kuy nomi.
Bixag	बिहाग	hind va karnatak ragasining nomi.
Bol	बोल	1) qo'shiq matni (Hindustani musiqqa shakli an'anasi); 2) tabla cholg'usida ijro jarayonida qo'llaniluvchi zarblarning bo'g'inli belgilari.
Busalik	बुसलिक	mumtoz kuy nomi.
Bxadjan	بخجن	qo'shiqchilikning diniy turi.
Bxayrav (Bxeyraviy)	भयखर भयखरी	hind ragasining nomi.
Bxopal (Bxopali)	भोपाल	hind ragasining nomi.

G'azal	غزل	1) urdu va fors tillaridagi lirik she'r janri; 2) musiqiy janr. xonanda.
Gayak	गायक	
Gayiki	गायकी	ijro etish uslubi.
Gora	گورا	1) go'zal; 2) oppoq; 3) kuy nomi.
Daf	دف	urma sozining nomi (doyra).
Dugoh	دوگاه	mumtoz kuy, maqom va lad nomi.
Zang zadan	زنگ زدن	qo'ng'iroq ovozi, qo'ng'iroq chalmoq, jaranglamoq.
Zaxme	زخمه	1) mediator, plektr, 2) zarb, turtki.
Zex	زه	tor.
Zilaf	زیلف	mumtoz kuy nomi.
Zir	زیر	cholg'uning eng nozik tori.
Iroq	عراق	1) joy nomi; 2) maqom vak lad nomi.
Qavval	قوال	Qavvali dastasining xonandasi.
Qavvali	قوالی	1) she'r va g'azalni xor bilan ijro etish; 2) Hindiston va Pokistonda o'ziga xos musiqa janri. mumtoz kuy nomi.
Qalbana	قلبانہ (کلبانہ)	
Kangali	کنگالی	1) faqirlik, kambag'allik; 2) mumtoz kuy nomi.
Kangra	کانگرا - گانگرا	1) bulbul; 2) mumtoz kuy nomi.

Qavl	قول	1) va'da, rozilik; 2) mumtoz kuy nomi.
Kos	کاس	urma cholg'u.
Kosa-e-tor	کاسه تار	baraban, litavra, tor rezonatori.
Kose	کاسه	rezonator (torli musiqiy cholg'ular uchun).
Kxat	کھت - سہت	1) zarb tovushi; 2) mumtoz kuy nomi.
Man'am	منعم	1) boy, xotamtoy; 2) mumtoz kuy nomi.
Masnaviy	مثنوی	masnaviy, she'riyatdagi janr.
Maofiq	موافق	1) mos keluvchi, munosib; 2) mumtoz kuy nomi.
Mujir	مجیر	1) himoyachi; 2) mumtoz kuy nomi.
Musiqar	موسیقار	an'anaviy mumtoz hind musiqasi bastakori.
Navo	نوا	1) kuy; 2) maqom va lad nomi.
Navo sozi	نوا سازی	bastakorlik san'ati.
Navoshunos	نوا شناس	musiqachi, musiqashunos.
Nag'ma	نغمه	kuy, ton, ohang.
Nag'ma saro	نغمه سارا	xonanda, o'z bastalagan qo'shiqlarini o'zi ijro etuvchi.
Nayriz	نیریز	kuy nomi
Naqsh	نقش	1) rasm, surat; 2) mumtoz kuy nomi.

Nat	نَت	nota
Nigar	نِگار	1) tasvir; 2) sevishtanlar; 3) mumtoz kuy nomi.
Parde	پَرده	ton, nota.
Pokub	پاکوب	raqqosa.
Purvi	پُورِی	1) Sharqiy; 2) mumtoz kuy nomi.
Raga, ragni	راگ , راجنی راگ راجنی	1) improvizatsiyaga asoslangan, ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysungan kuy shakli. 2) ayollar kuylashiga mo'ljallangan raga qismi.
Riz	رِیز	yuqori (tovush, ovoz va parda haqida; nota va lad degani).
Rost	راست	maqom.
Rubob	رباب	musiqiy cholg'u nomi.
Sozgar	سازگری	raga nomi.
Sazina	سازینہ	cholg'u kuyi.
Sama'	ساماع	1) tinglash, quloq solish; 2) tasavvufga oid she'riy va musiqiy asarlarni ijro etish uchun tashkil etiladigan so'fiy kechalari - «Mexfil»ning nomi. «Sama'»da qavvali guruhining xonanda va sozandalari, ya'ni «qavval»lar faol qatnashadilar. bastakor
Sangitkar	سنگیتکار	

Sanjzan	سَنج زَن	likobchalarda ijro etuvchi sozanda
Sarang	سَارَنگ سازنگ	kuy turi.
Sarparda	سَرپَرده	mumtoz kuy nomi.
Sohni	سَوَہنی سوفنی	«qavvali»da kuyning nomi.
Segoh	سَہ گاہ	makom va lad nomi.
Soxla	سَوَہلا - سَوَہلا	madh etuvchi kuy.
So'fiyana kalam	سَوَہیانا کلام	Kashmirdagi an'anaviy diniy qo'shiq.
Tal	تال - تال	usul, sur'at.
Tal dena	تال دَنا	usulga urg'u berish.
Tal mel	تال - مَہل	hamohanglik, garmoniya.
Tan	تان - تان	1) lad, tonlik; 2) «Raga»dagi musiqiy ibora.
Tarana	ترانہ	1) kuy nomi; 2) hind musiqasi janrlaridan biri.
Tori	توڑی - توڑی	«Raga» nomi.
Firdoust	فردوست	mumtoz kuy nomi.
Xayal	خیال	1) fikr, g'oya; 2) hind mumtoz musiqasidagi janr.

ADABIYOTLAR

1. A.Xusrav. Kulliyot. O'zFA ShI kutubxonasi. Qo'lyozma.
2. A.Xusrav. Komillik siri. O'zFA ShI kutubxonasi. Qo'lyozma.
3. A.Xusrav. To'qqiz falak. O'zFA ShI kutubxonasi. Qo'lyozma.
4. Baqoev M. Hayot va ijodiyoti Xusraviy. Dushanbe, 1975.
5. Vohid Mirzo. Amir Xusrav Dehlaviy. Deli. 1969.
6. Darvesh Ali Changiy. Risolai musiqiy. O'zFA ShI kutubxonasida. Qo'lyozma.
7. Н.Жавахарлал. Открытие Индии. Москва. 1961.
8. Safdar Ax. Amir Xusrav – hind shoiri. Bombay. 1966.
9. Txakur Navab Ali Xon. Ma'ruf ul-nagmat. Laxor. 1972.
10. Shibli Nu'moni. Amir Xusrav va musiqa. Islomobod. 1975.
11. Shomuxamedov Sh. Fors-tojik adabiyoti tarixidan qisqacha kurs. 1-kitob. Toshkent. 1987.
12. Shomuxamedov Sh. Fors-tojik adabiyoti tarixidan qisqacha kurs. 2-kitob. Toshkent. 1992.
13. Шаматов А.Н. К вопросу о подлинности произведений Амира Хусрава Дехлави на хиндави. Ташкент. 1971.
14. Насуллаев З. Жанр «каввали» в индийской музыке. Ташкент. 1979. Кўлёзма.
15. Глебов Н.В., Сухочёв А.А. Литература урду. Москва. 1967.
16. Ашрафян К.З. Дели, история и культура. Москва. 1987.
17. A.Brihaspati. Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musiqasi. Lahor. 1980. Xindiy tilidan urdu tiliga doktor Ubaydulla Xon tarjimasi.
18. A.Brihaspati. Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musiqasi. Toshkent, 2009. Urdu tilidan o'zbek tiliga Z.Nasullaev tarjimasi.

MUNDARIJA

Kirish	3
I. XIII-XIV asrlarda hind-musulmon madaniyati	5
II. Amir Xusrav Dehlaviy – buyuk shoir, olim, sozanda va «sangitkar»-bastakor	10
III. Amir Xusrav Dehlaviyning musiqiy cholg'ular haqidagi «masnaviy»lari	24
IV. Amir Xusrav Dehlaviy «Qavvali» musiqiy janrining asoschisi	35
Xotima	40
Musiqiy atamalar	41
Adabiyotlar	46

ZIYODULLA NASULLAEV

**AMIR XUSRAV DEHLAVIY
ASARLARIDA MUSIQA HAQIDA
MA'LUMOTLAR**

(Ilmiy-uslubiy qo'llanma)

Musahhih *N.Hamdamova, N.Hasanova*
Texnik muharrir *M.Toshpo'latov*
Kompyuterda tayyorlovchi *Baxtiyor Ashurov*

2010 yil 12.03.da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 ¹/₁₆.
Tayms garniturası. Ofset bosma.
Shartli b.t. 3,0. Jami 100 nusxa.

«ALGO BOSS» MCHJda chop etildi. Toshkent, Farhod ko'chasi, 21.

